

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 1891,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 20,9 ming kishiga yoki 1,1 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 704,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 1187,0 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **20,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **28,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- **5,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,8 mingta nikoh** va **1,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Buxoro viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi**  
 (2017-2018 yillar 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	2017 yil	2018 yil*	O`tgan yilga nisbatan o`sish sur`ti, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1862,9</b>	<b>1891,1</b>	<b>101,5</b>
<b>Buxoro sh.</b>	276,0	277,2	100,4
<b>Kogon sh.</b>	60,1	60,5	100,7
<b>tumanlar:</b>			
<b>Olot</b>	95,3	96,9	101,7
<b>Buxoro</b>	159,0	162,1	102,0
<b>Vobkent</b>	134,1	136,2	101,6
<b>G`ijduvon</b>	298,3	302,8	101,5
<b>Kogon</b>	73,9	75,8	102,6
<b>Qorako`l</b>	157,8	160,6	101,8
<b>Qorovulbozor</b>	17,7	18,0	101,7
<b>Peshko`</b>	117,3	119,6	102,0
<b>Romitan</b>	135,6	137,9	101,7
<b>Jondor</b>	166,9	170,1	101,9
<b>Shofirkon</b>	170,9	173,4	101,5

\*) dastlabki ma`lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktabr holatiga eng ko`p aholi soni G`ijduvon tumanida 302,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 %ni) va Buxoro shahrida 277,2 ming kishini (14,7 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 60,5 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 18,0 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o`sish sur`ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,5%ni, Buxoro tumanida 2,0 %ni, Peshko` va Jondor tumanlarida 1,9%ni, Qorako`l tumanida 1,8%ni, aksincha eng kam o`sish sur`ati Buxoro shahrida 0,4% ni va Kogon shahrida 0,6 %ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 28,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko`paygan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 19,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Jondor tumanida (19,6 promilledan 21,4 promillega) va Buxoro shahrida (15,8 17,3 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Qorovulbozor (20,6 19,4 promillega) va Buxoro (18,6 17,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.


### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Qiz bolalar:**  
13,5  
ming nafar

**O'g'il bolalar:**  
15,3  
ming nafar

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



## Demografik holat

### **Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-sentabr)**

	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>O'sish sur'ati %da</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>27 564</b>	<b>28794</b>	<b>104,5</b>
Buxoro sh.	3 256	3587	110,2
Kogon sh.	727	751	103,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1 484	1564	105,4
Buxoro	2 192	2124	96,9
Vobkent	2 025	2099	103,7
G'ijduvon	4 790	4955	103,4
Kogon	1 258	1282	101,9
Qorako'l	2 515	2706	107,6
Qorovulbozor	271	260	95,9
Peshku	1 867	1922	102,9
Romitan	2 171	2164	99,7
Jondor	2 437	2704	111,0
Shofirkon	2 571	2676	104,1

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 5,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Kogon (5,2 promilledan 4,3 promillega) Qorako'l (4,8 promilledan 3,8 promillega), Romitan (4,4 promilledan 3,5 promillega) Jondor (4,4 promilledan 3,7 promillega), Shofirkon (4,6 promilledan 4,1 promillega), Olot (4,7 promilledan 4,1 promillega) va Peshko` (4,1 promilledan 3,5 promillega), tumanlarida kuzatildi.


### Vafot etganlar



**Erkaklar : 3,1 ming**

**Ayollar: 2,7 ming kishi**

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



**Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi  
(yanvar-sentabr)**


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur`ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6 338</b>	<b>5785</b>	<b>91,3</b>
Buxoro sh.	1 024	1014	99,0
Kogon sh.	236	237	100,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	335	298	89,0
Buxoro	462	440	95,2
Vobkent	429	431	100,5
G'ijduvon	1 023	968	94,6
Kogon	284	241	84,9
Qorako'l	561	456	81,3
Qorovulbozor	41	42	102,4
Peshku	357	308	86,3
Romitan	447	354	79,2
Jondor	549	470	85,6
Shofirkon	590	526	89,2

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,1 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,0 %i o'simtalardan, 5,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 204 nafarni tashkil etib, ularning 50,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 13,7 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 10,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 23,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,8 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 21,2 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
23,0 ming kishi

## Demografik holat


**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuza-tilgan bo`lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Qorovukbozor (59,7 %), Olot (76,3 %), Romitan (78,6 %), Gijduvon (79,7 %) vtumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon (118,2 %), Jondor (106,3 %) va Gijduvon (100,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)**



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



### Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>10 561</b>	<b>8814</b>	<b>83,5</b>	<b>1 360</b>	<b>1170</b>	<b>86,0</b>
Buxoro sh.	1 589	1385	87,2	418	323	77,3
Kogon sh.	345	294	85,2	65	59	90,8
<i>tumanlar:</i>						
Olot	657	501	76,3	49	48	98,0
Buxoro	756	629	83,2	121	87	71,9
Vobkent	736	611	83,0	73	62	84,9
G'ijduvon	1 824	1454	79,7	181	182	100,6
Kogon	394	385	97,7	55	65	118,2
Qorako'l	955	820	85,9	78	69	88,5
Qorovulbozor	119	71	59,7	11	9	81,8
Peshku	616	562	91,2	63	46	73,0
Romitan	729	573	78,6	77	62	80,5
Jondor	814	701	86,1	80	85	106,3
Shofirkon	1 027	828	80,6	89	73	82,0

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,4 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,8 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar- sentabr	2018 yil yanvar- sentabr
Ko'chib kelganlar	5,3	4,9
Ko'chib ketganlar	7,1	7,0
Migratsiya saldosi	-1,8	-2,4

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 1,8 ming kishi), G'ijduvon tumanida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.